



**O'TISH IQTISODIYOTI SHAROITIDA DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINI
DASTURIY-MAQSADLI (NATIJAGA YO'NALTIRILGAN) BUDJETLASHTIRISH: BOSQICHLI
IQTISODIY MODEL**

Murtozayev Sanjar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0006-4468-1065

sanjarmurtozayev1591@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'tish iqtisodiyoti sharoitida davlat oliy ta'lim muassasalarini natijaga yo'naltirilgan (performance-based) byudjetlashtirish tizimiga o'tkazishning iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqotda muallif tomonidan moliyalashtirishning iqtisodiy-matematik modeli taklif etilib, unda ajratiladigan mablag' bazaviy normativ va integral natijadorlik indeksiga bog'langan natijadorlik komponentidan iborat bo'ladi. Tizimni joriy etishning to'rt bosqichli modeli asoslangan bo'lib, unda natijadorlik ulushi bosqichma-bosqich oshib boradi. Xalqaro tajriba qiyosiy tahlil qilinib, model o'tish iqtisodiyotining o'ziga xosligiga moslashtirilgan. Tadqiqot natijalari davlat asignatsiyalarini ta'lim sifati va natijadorligi bilan bog'lash, moliyaviy risklarni minimallashtirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradigan tizimli yondashuvni taklif etadi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish, dasturiy-maqсадli byudjet, moliyalashtirish formulasi, integral natijadorlik indeksi, o'tish iqtisodiyoti, bazaviy normativ, differensial koeffitsiyent, moliyaviy diversifikatsiya.

**ПРОГРАММНО-ЦЕЛЕВОЕ (ОРИЕНТИРОВАННОЕ НА РЕЗУЛЬТАТ)
БЮДЖЕТИРОВАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДНОЙ ЭКОНОМИКИ: ПОЭТАПНАЯ
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ**

Муртозоев Санжар

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье разработана экономическая модель перехода государственных высших образовательных учреждений к системе программно-целевого (ориентированного на результат) бюджетирования в условиях переходной экономики. В исследовании автором предложена экономико-математическая модель финансирования, в которой объём выделяемых средств определяется базовым нормативом и компонентом результативности, зависящим от интегрального индекса результативности. Обоснована четырёхэтапная модель внедрения системы, предусматривающая поэтапное увеличение доли финансирования, основанной на результативности. Проведён сравнительный анализ международного опыта, а предложенная модель адаптирована к специфике переходной экономики. Результаты исследования предлагают системный подход, позволяющий увязать государственные ассигнования с качеством образования и достигнутыми результатами, минимизировать финансовые риски и повысить эффективность использования ресурсов.

Ключевые слова: высшее образование, ориентированное на результат бюджетирование, программно-целевое бюджетирование, формула финансирования, интегральный индекс результативности, переходная экономика, базовый норматив, дифференцированный коэффициент, финансовая диверсификация.

A PHASED ECONOMIC MODEL FOR PROGRAM-BASED (PERFORMANCE-ORIENTED) BUDGETING OF PUBLIC HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN A TRANSITIONAL ECONOMY

Murtozayev Sanjar

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article develops an economic model for the transition of public higher education institutions to a program-based (performance-oriented) budgeting system in the context of a transitional economy. The study proposes an economic and mathematical funding model in which the amount of allocated funding consists of a baseline allocation and a performance-based component linked to an integrated performance index. A four-stage implementation model is substantiated, providing for the gradual increase in the share of performance-based funding. A comparative analysis of international experience is conducted, and the proposed model is adapted to the specific characteristics of a transitional economy. The findings offer a systematic approach that links public budget allocations to educational quality and institutional performance, minimizes financial risks, and enhances the efficiency of resource utilization.*

Keywords: *higher education, performance-oriented budgeting, program-based budgeting, funding formula, integrated performance index, transitional economy, baseline allocation, differentiated coefficient, financial diversification.*

Kirish.

Davlat oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish usuli ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan, ammo natijaga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan omildir. An'anaviy "erishilgan darajadan kelib chiqib moliyalashtirish" (incremental budgeting) tizimida mablag' avvalgi yil xarajatlari asosida ajratiladi va u muassasaning faoliyat natijasiga deyarli bog'lanmaydi. Natijada moliyaviy resurslar samaradorlikni rag'batlantirmaydi, balki mavjud holatni qayta ishlab chiqaradi. Aynan shu kamchilik so'nggi yigirma yillikda ko'plab mamlakatlarni natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga o'tishga undadi.

O'tish iqtisodiyoti sharoitida bu masala alohida ahamiyat kasb etadi: bir tomondan, rejali boshqaruv merosi sifatida qat'iy smeta tizimi saqlanib qolgan; ikkinchi tomondan, bozor mexanizmlari moliyaviy mustaqillik va natijadorlikni talab qiladi. Ushbu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish o'tish iqtisodiyotidagi davlatlar uchun jiddiy metodologik muammodir. Mazkur maqolaning maqsadi — davlat oliy ta'lim muassasalarini natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga o'tkazishning iqtisodiy-matematik modeli va uni bosqichma-bosqich joriy etish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish (performance-based funding) xalqaro iqtisodiy adabiyotda keng o'rganilgan. Yevropa Komissiyasi universitet ta'limini modernizatsiyalash bo'yicha hujjatlarida incremental byudjetlashtirishdan natijaga asoslangan moliyalashtirishga o'tish zarurligini ta'kidlagan (OECD, 2024).

Adam (2020) to'rt mamlakat misolida natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish dasturlarini qiyosiy tahlil qilib, ularning global reytinglar bilan bog'liqligini ko'rsatgan. Marginson va Teichlerlar (2018) moliyalashtirish modellarining milliy o'ziga xosligini, McCall (2014) esa ta'lim moliyasi siyosatining qamrovga ta'sirini tahlil qilganlar.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, natijaga bog'langan moliyalashtirishning ulushi mamlakatlar bo'yicha sezilarli farq qiladi va bu farq har bir davlatning fiskal siyosati va boshqaruv modeliga bog'liq. Shu bilan birga, mavjud adabiyotda o'tish iqtisodiyoti sharoitida — rejali va bozor mexanizmlarining o'zaro uyg'unligi sharoitida — natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga bosqichma-bosqich o'tishning aniq iqtisodiy modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Aksariyat tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaratilgan bo'lib, o'tish davri uchun moslashtirilgan, formulaga asoslangan model kam uchraydi. Mazkur tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan (Mangrum, 2022).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda iqtisodiy-matematik modellashirish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va stsensariy tahlili usullaridan foydalanildi. Moliyalashtirish formulasi nazariy jihatdan asoslanib, uning komponentlari iqtisodiy mazmun bo'yicha izohlandi. Tizimni joriy etish bosqichlari natijadorlik ulushining o'zgarishi bo'yicha modellashirildi. Xalqaro tajriba (Yevropa davlatlari) natijaga bog'langan moliyalashtirish ulushi kesimida qiyosiy tahlil qilinib, model o'tish iqtisodiyotining sharoitlariga moslashtirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning mohiyati shundaki, ajratiladigan mablag' muassasa faoliyatining natijasi bilan bog'lanadi. Biroq amaliyotda bu bog'liqlikni qanday miqdoriy ifodalash kerakligi murakkab masala bo'lib qoladi. Tadqiqotda biz moliyalashtirishni ikki tarkibiy qism — kafolatlangan bazaviy va rag'batlantiruvchi natijadorlik komponentlari sifatida shakllantirishni taklif etamiz. Bu yondashuv ta'lim sohasining o'ziga xosligini — ya'ni keskin moliyaviy zarbalarga yo'l qo'ymaslik zaruriyatini — hisobga oladi. Muallif tomonidan taklif etilayotgan moliyalashtirish modeli quyidagi ko'rinishga ega:

$$F_i = N_\beta \times C_i \times W_i + P_i$$

bunda: F_i — i-muassasaga ajratiladigan jami moliyalashtirish hajmi; N_β — bir talabani o'qitishning bazaviy normativ xarajati; C_i — talabalar kontingenti; W_i — differensial vazn koeffitsiyenti; P_i — natijadorlik (performance) komponenti.

Natijadorlik komponenti bazaviy moliyalashtirishga, natijadorlik ulushiga va integral natijadorlik indeksiga bog'liq holda aniqlanadi:

$$P_i = \alpha \times (N_\beta \times C_i \times W_i) \times I_i$$

bunda: α — moliyalashtirishning natijadorlikka bog'langan ulushi (siyosat parametri); I_i — integral natijadorlik indeksi (0 dan 1 gacha). Integral indeks esa sifat indikatorlarining vaznli yig'indisi sifatida hisoblanadi:

$$I_i = \sum (k_j \times x_{ij}), \sum k_j = 1$$

bunda: x_{ij} — j-sifat indikatorining normallashtirilgan qiymati (bitiruvchilar bandligi, ilmiy nashrlar iqtiboslik ko'rsatkichi, xalqaro akkreditatsiya, reyting, qabul va bitirish nisbati); k_j — uning vazn ulushi. Differensial koeffitsiyent W_i esa ta'lim yo'nalishi, bosqichi va muassasa maqomiga ko'ra belgilanib, resurslarni adolatli taqsimlashni ta'minlaydi.

Modelning amaliy ishlashini shartli misol orqali ko'rsatamiz. Faraz qilaylik, muassasaning bazaviy moliyalashtirishi 100 shartli birlik. Agar natijadorlik ulushi $\alpha = 0,20$ va integral indeks $I_i = 0,8$ bo'lsa, natijadorlik komponenti $P_i = 0,20 \times 100 \times 0,8 = 16$ birlikni tashkil etadi, jami moliyalashtirish esa 116 birlikka yetadi. Natijadorligi past muassasada ($I_i = 0,4$) bu komponent atigi 8 birlik bo'lib, jami moliyalashtirish 108 birlikni tashkil etadi. Shu tariqa model bir xil kontingentga ega, ammo turlicha natija ko'rsatgan muassasalarni moliyaviy jihatdan differensiallaydi va yuqori natijani rag'batlantiradi.

Modelning markaziy g'oyasi α parametrining o'zgaruvchanligida. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, natijaga bog'langan moliyalashtirish ulushi mamlakatlar bo'yicha keng diapazonda farqlanadi (1-jadval). Bu α parametrini bir martada emas, balki bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiqligini asoslaydi.

Modelning iqtisodiy mantig'i quyidagicha: 1-bosqichda moliyalashtirish to'liq bazaviy normativga tayanadi ($\alpha \approx 0$); keyingi bosqichlarda natijadorlik komponenti ulushi ortib, 4-bosqichda jami moliyalashtirishning 30–40 foizi bevosita natija bilan bog'lanadi. Bunday bosqichli o'tishning ikki muhim afzalligi bor. Birinchidan, u muassasalarga yangi tizimga moslashish va indikatorlar bazasini shakllantirish uchun vaqt beradi. Ikkinchidan, u keskin

moliyaviy zarbalarni oldini oladi — bu, ayniqsa, ta'lim sohasida muhim, chunki davlat moliyalashtirishining keskin qisqarishi ta'lim sifati va ommabopligiga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1-jadval.

Natijaga bog'langan moliyalashtirish ulushining xalqaro qiyosi

Mamlakat	Natijaga bog'langan ulush (taxminan), %
Niderlandiya	≈ 50 (diplomlar soni bilan bog'liq)
Shvetsiya	≈ 45
Litva, Vengriya, Ruminiya	12–20
Italiya	5 dan kam

Yuqoridagi tahlilga asoslanib, muallif tomonidan natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga o'tishning to'rt bosqichli iqtisodiy modeli taklif etiladi. Modelning mohiyati α parametrining bosqichma-bosqich oshishida bo'lib, bunda smeta (input) asosidagi moliyalashtirish o'rnini natija (output) asosidagi moliyalashtirish egallab boradi (2-jadval).

2-jadval.

Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishni joriy etishning bosqichli modeli

Bosqich	Mexanizm	α (natija ulushi)	Asosiy vazifa
1-bosqich	Smeta + davlat topshirig'i (parallel)	≈ 0 %	Indikatorlar bazasi va monitoringni yaratish
2-bosqich	Hisob-kitob-normativ (output-based)	≈ 5–10 %	Normativ metodikani takomillashtirish
3-bosqich	Aralash dasturiy byudjet	≈ 15–25 %	Natijadorlik komponentini kengaytirish
4-bosqich	To'liq performance-based byudjet	≈ 30–40 %	Asignatsiyani natija bilan to'liq bog'lash

Mazkur model o'tish iqtisodiyotining o'ziga xosligini hisobga oladi. Rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda, o'tish davridagi davlatlarda indikatorlar bazasi, monitoring tizimi va muassasalarning moslashuv salohiyati hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli α parametrini darhol yuqori darajaga ko'tarish (masalan, Niderlandiyadagi 50 foizga) tizimni beqarorlashtirishi mumkin. Bosqichli yondashuv esa rejali va bozor mexanizmlarini muvozanatda saqlab, islohotni boshqariladigan tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Modelning samarali ishlashi uchun bir qator shartlar zarur. Avvalo, ishonchli va shaffof indikatorlar bazasi yaratilishi kerak, aks holda natijadorlik komponenti ob'ektivligini yo'qotadi. Ikkinchidan, vakolatli organ va muassasa o'rtasida o'rta muddatli (masalan, uch yillik) ta'lim xizmatlari shartnomasi tuzilib, unda maqsadli ko'rsatkichlar va moliyalashtirish tartibi belgilanishi lozim. Uchinchidan, natijadorlikka bog'lash moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash bilan to'ldirilishi kerak: davlat asignatsiyasi natija bilan bog'langani holda, muassasa grant, intellektual mulkni tijoratlashtirish va daxlsiz jamg'arma kabi muqobil manbalar hisobidan moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning iqtisodiy-matematik modelini ishlab chiqish va uni o'tish iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirilgan bosqichli (α parametrining o'zgaruvchanligiga asoslangan) tarzda asoslashda namoyon bo'ladi. Mavjud yondashuvlardan farqli ravishda, model bazaviy va natijadorlik komponentlarini birlashtirib, ham moliyaviy barqarorlikni, ham natijaga rag'batlantirishni bir vaqtning o'zida ta'minlaydi.

Shu bilan birga, modelning ayrim cheklovlarini ham e'tirof etish lozim. Birinchidan, integral indeks tarkibidagi indikatorlar va ularning vazn koeffitsiyentlarini tanlash sub'ektivlik

xatariga ega; uni minimallashtirish uchun statistik usullardan (asosiy komponentalar tahlili) foydalanish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, natijaga haddan tashqari urg'u berish muassasalarni qisqa muddatli ko'rsatkichlarga moslashishga undashi, fundamental va uzoq muddatli vazifalarni esa e'tibordan chetda qoldirishi mumkin. Shu bois bazaviy komponentning yetarli ulushini saqlash strategik ahamiyatga ega. Ushbu cheklovlar modelni amaliyotda sinab ko'rish va aniq parametrlar bilan to'ldirish zaruratini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Davlat oliy ta'lim muassasalarini natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishga o'tkazish moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishidir. Tadqiqotda moliyalashtirishning iqtisodiy-matematik modeli ($F_i = N_{\beta} \times C_i \times W_i + P_i$) ishlab chiqildi, unda mablag' bazaviy normativ va integral natijadorlik indeksiga bog'langan natijadorlik komponentidan iborat bo'ladi. Tizimni joriy etishning to'rt bosqichli modeli asoslanib, unda natijadorlik ulushi (α) bosqichma-bosqich nol foizdan 30–40 foizgacha oshib boradi. Model o'tish iqtisodiyotining o'ziga xosligini hisobga olib, rejali va bozor mexanizmlarini muvozanatda saqlaydi hamda keskin moliyaviy zarbalardan saqlaydi. Taklif etilgan yondashuv davlat asignatsiyalarini ta'lim sifati va natijadorligi bilan bog'lash, moliyaviy risklarni minimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda model empirik ma'lumotlar asosida sinovdan o'tkazilishi va aniq parametrlar bilan to'ldirilishi mumkin.

Adabiyotlar /Jumepamypa/References:

- Adam, E. (2020). 'Governments base performance-based funding on global rankings indicators': A global trend in higher education finance or a global rankings literature fiction? A comparative analysis of four performance-based funding programs. *International Journal of Educational Development*, 76, 102197.
- Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The balanced scorecard: Translating strategy into action*. Harvard Business School Press.
- Lung, M., Moldovan, I., & Alexandra, N. (2012). Financing higher education in Europe: Issues and challenges. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 51, 938–942.
- Mangrum, D. (2022). Personal finance education mandates and student loan repayment. *Journal of Financial Economics*, 146(1), 1–26.
- Marginson, S. (2018). Global trends in higher education financing: The United Kingdom. *International Journal of Educational Development*, 58, 26–36.
- Nezhad, L. H., Anderberg, D., Chevalier, A., Luhrmann, M., & Pavan, R. (2021). Higher education financing and the educational aspirations of teenagers and their parents. *Economics of Education Review*, 85, 102175.
- OECD. (2024). *Education at a glance 2024: OECD indicators*. OECD Publishing.
- Teichler, U. (2018). Recent changes of financing higher education in Germany and their intended and unintended consequences. *International Journal of Educational Development*, 58, 37–46.
- World Bank. (2018). *The human capital project*. World Bank Group.
- Yang, L., & McCall, B. (2014). World education finance policies and higher education access: A statistical analysis of World Development Indicators for 86 countries. *International Journal of Educational Development*, 35, 25–36.